

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

KELDIYOROVA NAIMA NABIJONOVNA

**ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA POETIK OBRAZ VA UNING
BADIY TALQINI**

(Azim Suyun ijodi misolida)

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Keldiyorova Naima Nabijonovna

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida poetik obraz va uning badiiy talqini (Azim
Suyun ijodi misolida)..... 3

Келдиёрова Наима Набижоновна

Поэтический образ и его художественная интерпретация в
современной узбекской поэзии (на примере творчества Азима
Суюна)..... 25

Keldiyorova Naima Nabijonovna

Poetic image and its artistic interpretation in modern uzbek poetry (based on
the example of Azim Suyun's creation)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

KELDIYOROVA NAIMA NABIJONOVNA

**ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA POETIK OBRAZ VA UNING
BADIY TALQINI**

(Azim Suyun ijodi misolida)

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.1.PhD/Fil710 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qahramonov Qurdosh Valg'ashevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hasanov Nodirxon Dadaxonovich
filologiya fanlari doktori

Ulug'ov Abdulla O'zbekovich
filologiya fanlari nomzodi, professor.

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi DSc.27.06.2017.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «25» yanvar soat 12 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (99871) 233-36-50; faks: (99871)233-71-14; e-mail: uzltafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 700100. Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «9» yanvar da tarqatildi

(2023- yil «9» yanvar dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).



N.Karimov,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, f.f.d., akademik

R.Barakayev,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.n., prof.

J. Eshonqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida poetik obraz va uning spetsifik xususiyatlari, shoirning borliqni badiiy idrok etishi, idrok etilgan reallikni badiiy ifodalash usul va vositalari qadimdan o'rganilib kelinmoqda. Biroq poetik obraz adabiyotshunoslikning doimiy muammolaridan biri sifatida har bir davrda ilmiy ahamiyatga ega.

Dunyo adabiyotshunosligida XX asrdan to bugungi kunga qadar yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda poetik obraz yaratish, shoir badiiy mahoratini o'rganish bosh masalalardan biri sifatida qaraladi. Lirik qahramon ruhiyati, shoir "men"ning namoyon bo'lishida qo'llaniladigan turli-tuman poetik unsurlar, timsol va ramzlar, majoziy talqinlarning badiiy-estetik vazifasiga shoir konsepsiyasini belgilovchi asosiy omillar sifatida yondashiladi. She'riyatda yaratiladigan poetik obraz va boshqa badiiy unsurlar shoirning ijodiy pozitsiyasini belgilovchi asosiy xususiyatlardan hisoblanib, ijodkorning adabiyot haqidagi, badiiy asar va uning tabiati, ijodiy jarayon xususidagi qarashlari bilan uyg'unlikda yoritiladi.

O'zbek adabiyotida badiiy obraz va uning talqinlari doimo jiddiy o'rganib kelingan. Lekin bugungi kunda poetik obrazga, xususan, uning tadrijiy takomilini Azim Suyun ijodi misolida o'rganishga zarurat paydo bo'ldi. Yangi avlod ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiy obrazlar turli xil ma'no tovlanishlari, lirik qahramonning ko'ngil kechinmalari ham ijtimoiy, ham ma'naviy, shuningdek, inson va tabiat munosabatlari fonida aks ettirishga yo'naltirilgani bilan ajralib turadi. She'riyatda umumbashariy qadriyatlar bilan birga milliy o'zlik, sharqona odob-axloq tuyg'ularining, asl insoniylikni anglashga bo'lgan ehtiyojning yetakchi o'ringa ko'tarilishi poetik ifodaning yangilanishini taqozo eta boshladi. Shu bois, bu davr yoshlar she'riyatida ham an'anaviy, ham zamonaviy, ham yangicha poetik izlanishlar namunalarini ko'rishimiz mumkin. Binobarin, bu davr yoshlar she'riyatini, xususan, iste'dodli shoir Azim Suyun ijodini badiiy mahorat nuqtayi nazaridan tadqiq etish, shoir shaxsiyati, dunyoqarashi she'rlarida qanday namoyon bo'lishi, yangicha poetik obraz yaratishdagi an'anaviy va zamonaviy ifoda yo'sinlari hamda ramziy-majoziy obrazlar talqini asosida shoir konsepsiyasini belgilash orqali badiiy ijodda ruhiyat talqiniga oid muammolar bo'yicha kuzatishlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, «...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q»¹. Shunga ko'ra, istiqlol davri adabiyotshunosligida kuzatilayotgan yangicha yondashuvlar asosida shoirlar ijodida ifoda etilayotgan lirik "men" botiniy olamiga milliy va umumbashariy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashish ishning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 4 август.

to'g'risida»gi va 2016-yil 13-maydagi PF-4947-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi VMQ-304-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Poetik obraz va uning xususiyatlari, tasnifi, badiiy-estetik funksiyasi kabi masalalar tadqiqi Platon, Aristotel, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, V.G.Belinskiy, A.Potebnya, A.Sa'diy, Fitrat, Rene Uellek, Ostin Uorren, Izzat Sulton, L.Timofeev, G.Pospelov, B.Sarimsoqov, V.Y.Xalizev, N.D.Tamarchenko, Terri Iglton kabi olimlar tomonidan olib borilgan².

So'nggi yillarda ham o'zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz va uning badiiy talqini bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Naim Karimov, Hotam Umurov, Akbarali Sabirdinov, Dilmurod Quronov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Suvon Meliyev, Botir Norboyev, Yashar Qosim, Jumagul Jumaboyeva, Nurboy Jabborov, Ulug'bek Hamdamov kabi taniqli olimlar zamonaviy she'rshunoslikka katta hissa qo'shgan bo'lsalar, ularning vorislari sifatida bir qancha yosh tadqiqotchilar ham kuzatishlar olib bordilar³. Bu tadqiqotlarda shoirlarning poetik olami, so'z tanlash va poetik obraz

² Афлотун. Давлат: насрий дoston. тарж. Урфон Отажон. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – 464 б.; Арасту. Поэтика. Ахлоқий кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – 352 б.; Аристотель. Метафизика. Перевод с греческого П. Д. Первова и В. В. Розанова. – М.: Институт философии, теологии и истории св. Фомы, 2006. – 232 с.; Форобий. Шоирлар санъати конунлари ҳақида/Аристотель. Поэтика. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. – 63-74-б.; Абу Али ибн Сино. Шеър санъати <http://www.e-adabiyot.uz.adabiyotshunoslik>. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тарихи очерклари. – Т.: Фан, 2007. – Б.137-146; Гегель. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан Маҳмуд Абдуллаев таржимаси. – Т.: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2011. – 360 б.; Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Т.: Уздавнашр, 1955. – 511 б.; Саъдий, Абдурахмон. "Амалий ҳам назарий адабиёт дарслари"дан / Мумтоз шарқ поэтикаси манбалари Ҳ.Болтабоев талқинларида. 1-китоб. – Т.: О'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 426 б.; Фитрат. Адабиёт қондалари. Тошкент, 1995. – 112 б.; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М.: Художественная литература, 1975. – 504 с.; Пospelov Г.И. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978. – 351 с.; Потебня А.А. Слово и миф. – М.: Правда, 1989. – С. 17-200. <http://philologos.narod.ru/potebnja/>; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 416 б.; Ғ.ас-Салом, Н.Отажон. Жаҳонгашта "Бобурнома". – Т.: Халқ мероси, 1997. – 364 б.; Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т.: Маънавият, 1999. – 280 б.; Саримсоқов Б.И. Бадийлик асослари ва мезонлари. Т., 2004. – 128 б.; Хализев Е.В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2013. – 412 с. www.gumer.ru/books/xalizev/; Теория литературы. В двух томах. Том 1. Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – М.: Академия, 2004. – 252 с.; Тимофеев Л.И. Проблемы теории литературы. – М.: Учпедгиздат, 1955. – 302 с.; Рене Уэллек, Остин Уоррен. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978.–328 с.; Terry Eanleton. Literary theory: an introduction. 2nd ed. The University of Minnesota Press. <http://www.upress.umn.edu>. Fourth printing, 2003. – 245 p.

³ Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1976. – 232 б.; Биринчи мўъжиза. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 464 б.; Ғафуров И. Дил эркинлиги. – Т.: Маънавият, 1998. – 152 б.; Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. – Т.: Фан, 1964. – 160 б. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979.

yaratish mahorati, she'riy shakl va janrlarni yangilash borasida olib borgan kuzatuvlari tahlil va tadqiq etilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu ijodkorlarga baqamti bo'lgan Azim Suyun she'riyati haqida ham yuqorida nomlari tilga olingan olimlar tomonidan turli mulohazalar, kuzatuvlar bitilgan, maqolalar chop etilgan bo'lsa-da, lekin zamondoshlaridan farqli o'laroq shoir ijodi haqida alohida monografik tadqiqot ishlari olib borilmagan. Vaholanki, shoirning bu davrda yaratgan she'rlari, dramatik dostonlari, o'tkir vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan publitsistik asarlarining ijtimoiy-ma'naviy va adabiy hayotdagi o'rni kattadir. Azim Suyunning bu davrda yaratgan she'riyatidagi yetakchi konsepsiya va poetik obraz muammosini o'rganish adabiyotshunoslik ilmining davrga oid muammolarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot shoir she'riyatida poetik izlanishlarni yaxlit tadqiq etuvchi tadqiqot sifatida avvalgi ishlardan farq qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Yangi o'zbek adabiyoti bo'limi rejasidagi "Hozirgi adabiy jarayon masalalari" mavzusida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asrning 70 - 90-yillar hamda mustaqillik davri she'riyatidagi ijodiy izlanishlar va badiiy yangilanishlarni iste'dodli shoir Azim Suyun asarlari misolida o'rganish asosida davr she'riyatining yetakchi xususiyatlarini aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– 192 б. Раҳимжонов Н. Шоир ва давр. – Т.: Фан, 1983. – 184 б. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: Фан, 2007. – 260 б.; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърлят. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 111 б.; Англаш ва ҳис этиш санъати. Катта йўл бошида (мақолалар тўплами). – Т.: Ёш гвардия, 1987. – 287 б.; Мамажонов С. Услуб жилolari. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – 220 б.; Мамажонов С. Лирик олам, эпик кўлам. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 84 б.; Назаров Б. Ҳаётлийлик – безавол мезон. – Т.: Ёш гвардия, 1985. – 224 б.; Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.; Акрамов Б. Проблема поэтического образа в современной узбекской лирике (60-е-80-е годы): Автореф.дисс... д-ра филол.наук. – Т.: 1991. – 51 с.; Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 200 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т.: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 354 б.; Сабирдинов А. Ойбекнинг шеърлий маҳорати. – Т.: Фан, 2005. – 198 б.; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърлятида психологик тасвир маҳорати: Филол.фан. д-ри ... дисс.автореф. – Т., 1999. – 53 б.; Ҳамдамов У. 30-йиллар ўзбек шеърлятида “соф лирика” муаммоси: Филол.фан.номз... дисс.автореф. – Т., 1997, 23 б.; Қосимов Я. Ўзбек шеърлятида поэтик фикрнинг янгиланиш жараёни: Филол.фан.номз... дисс. – Т., 1993. – 25 б.; Афақова Н. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар: Филол.фан.номз... дисс. – Т., 1997. – 26 б.; Ашурова Г. Абдулла Орипов шеърларида анъана ва бадий маҳорат: Филол.фан.номз... дисс. – Т., 2008. – 24 б.; Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талкин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари: Филол.фан.номз. дисс.автореф. – Т., 1996. – 24 б.; Абдукаримов Т. Зулфиянинг 70-80-йиллар ижодида лирик қаҳрамон тасвири: Филол.фан.номз... дисс.автореф. – Т., 1995. – 25 б.; Жуматова Ж. Ўзбек шеърлятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол.фан.номз... дисс.автореф. – Т., 2000. – 22 б.; Йўлдошева М. Ҳозирги ўзбек модерн шеърлятининг асосий хусусиятлари: Филол.фан.номз... дисс. – Т., 2004; Мирзаева А. XX аср шеърлятида метафорик образ муаммоси (Гарсиа Лорка ва Шавкат Раҳмон шеърляти мисолида): Филол.фан.номз... дисс.автореф. – Т., 2006; Муллаҳўжаева Р. Тафаккур янгиланиши (Шавкат Раҳмон ижоди мисолида). – Т.: Мовароуннаҳр, 2019. – 145 б.; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърлятида психологик тасвир маҳорати. – Т.: Фан, 2004; Карим, Б. Рухият алифбоси. – Т.: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2016. – 364 б.; Турдимов Ж.Б. Лирик кечинма табиати: Филол. фан.номз... дисс. автореф. – Т., 1999. – 22 б.; Ходжамқулов У.Н. Миртемир лирикасида сўз ва образ: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2004. – 22 б.; Қурбонбоев И.А. 90-йиллар ўзбек шеърлятида образлилик: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2005. – 24 б.; Ҳайитов А. 90-йиллар ўзбек шеърлятида анъана ва услубий изланишлар: Филол. фан. номз. ...дисс. – Т., 2004. – 132 б.; Юлчиев Қ. Ўзбек шеърлятида бирлик ва учлик шеър поэтикаси: Филол.фан б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. Ф., 2017. – 157 б.

voqelikni badiiy idrok etishning genezisi, tarixiy taraqqiyotiga jahon adabiyotshunosligi yetuk olimlarining munosabatini o'rganish, shu orqali poetik obrazning badiiy tafakkurdagi o'rnini yangi davr nuqtayi nazaridan qayta belgilash;

o'zbek adabiyotidagi poetik obraz va uning ilmiy-nazariy asoslarini hamda tadrijiy takomilini, vujudga kelayotgan yangicha yo'nalishlar, poetik obraz va timsollar, lirik qahramon ideali masalalarini tahlil etish;

o'zbek adabiyotida Azim Suyunning tutgan o'rni, poetik obraz yaratish mahorati va ijodiy-uslubiy izlanishlarini hamda uning ijtimoiy-psixologik, biografik va estetik asoslarini belgilash;

shoir she'riyatida odam va olam, vatan va vatanparvarlik, chuqur insoniy gumanizm, inson va tabiat munosabatlari, tabiatga oshuftalik tuyg'ularining ijtimoiy-biografik va ruhiy omillarini tahlillar jarayonida ochib berish;

Azim Suyun she'rlaridagi janriy izlanishlarni, xususan, shoir uslubiy izlanishi hisoblangan qayirmalarida falsafiy, axloqiy va ta'limiy g'oyalarning ustuvorligini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida Azim Suyunning she'rlari jamlangan ko'p jildlik "Tanlangan asarlar"i olindi. Ishning mohiyatidan kelib chiqib, zarur o'rinlarda boshqa ijodkorlar she'rlari ham tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning predmetini Azim Suyunning ishga jalb etilgan lirik she'rlaridagi poetik obraz hamda uning yuzaga chiqishini ta'minlashda ishtirok etadigan lirik kechinma, mavzu, g'oya, muammo, xalqona motiv kabi badiiylik unsurlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida struktural tahlil, tarixiy-qiyosiy, biografik metodlar hamda tavsif va tasnif usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asr 70 - 90-yillar o'zbek yosh shoirlari she'riyatida poetik obraz yaratishning o'ziga xos xususiyatlarini jahon adabiyotshunosligi kesimida muammoning genezisi va tarixiy ildizlariga nazar tashlash va talqin etish asnosida badiiy tafakkur tadriji hamda ijodiy yo'nalishlarini belgilashdagi asosiy omillardan biri ekanligi tahlillar bilan asoslab berilgan;

Azim Suyun she'riyatining mavzu ko'lami yuksak vatanparvarlik motivlari bilan sug'orilgani, vatan madhi shoir she'rlarining o'q tomirini tashkil etishi va ona zamin bilan uzviy bog'liq tarzda tarannum qilinishi yaratilgan turfa xil obraz va timsollar orqali ifoda etilib, uning adabiy jarayonda tutgan o'rni, zamondosh shoirlardan farqli jihatlari, an'anaviy she'riyatga hamohangligi hamda chuqur insoniy gumanistik g'oyalari bilan ijtimoiy-estetik tafakkurga ko'rsatgan ta'siri ilmiy asoslangan;

shoir she'riyatidagi yetakchi poetik obrazlar tabiat hodisalari bilan uzviy bog'langan bo'lib, odam va olam munosabatlarining falsafiy talqini, birinchi galda lirik qahramonning, qolaversa, shoir shaxsiyatining voqelikka, borliqqa bo'lgan ijtimoiy-estetik pozitsiyasini belgilovchi asosiy motivlardan biri ekani yoritilgan;

shoirning shakliy-uslubiy izlanish mahsuli bo'lgan qayirmalarida qo'llangan "Ey, do'st!" topilmasining poetik obraz darajasiga ko'tarilib qoliplovchi vazifasida kelishi hamda falsafiy teranlik, hikmatona mohiyat va xalqona ifoda ustuvorligini ta'minlashi tahlillar bilan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davr she'riyati haqida, xususan, tadqiqot obyekti bo'lgan Azim Suyun she'riyatidagi poetik izlanishlar badiiy obraz yaratish mahorati hamda janriy-uslubiy takomili, an'anaviyligi va zamonaviyligi borasidagi chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, adabiyot tarixi va adabiy jarayonga oid yangi tadqiqotlar olib borish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

mazkur tadqiqot materiallaridan oliy ta'lim tizimida adabiyot darslarini o'qitishda, adabiyot tarixi va adabiy jarayon fanlari bo'yicha darslik va qo'llanmalar, ma'ruza matnlari tayyorlashda foydalanish mumkin;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy-nazariy xulosalariga asoslanganligi, muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy, biografik va ruhiy tahlil usullari orqali asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot XX asr 70 - 90-yillar she'riyatidagi yetakchi tendensiyalarni chuqur qamrab olgani, ayni paytda, iste'dodli shoir Azim Suyun she'riyatini alohida obyekt sifatida o'rganib, poetik mahorat nuqtayi nazaridan izchil tadqiq etgani bilan ko'zga tashlanadi. Ayni shu jihat mazkur tadqiqotning keyingi shu tipdagi ilmiy izlanishlar uchun asos vazifasini ta'minlaydi.

Dissertatsiyada Azim Suyun she'riyati tahlili asosida olib borilgan ilmiy kuzatishlar, ulardan chiqarilgan xulosa va umumlashmalar XX asr she'riyatiga xos taraqqiyot tamoyillarini, badiiy izlanishlarini va mahorat masalalari haqidagi ilmiy qarash va tushunchalarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida poetik obraz va uning badiiy talqini mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

70 - 90-yillar yoshlar she'riyatidagi poetik tafakkurning yangilanishi, badiiyati, jumladan, she'riyatda davr o'zgarishlari bilan bog'liq ravishda vujudga kelayotgan yangicha yo'nalishlar, poetik obraz va timsollar hamda janriy o'zgarishlar va o'zbek she'riyatida Azim Suyun ijodining tutgan o'rnini masalalariga oid ilmiy xulosalardan O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan OT-F1-80 "Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi" (2017–2020) nomli fundamental loyihasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2021-yil 27-sentyabrdagi 3/1255-2961-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalar "Azim Suyun she'riyatida yurt madhi", "Tabiat tasvirlarida shoir shaxsi va lirik men kechinmalari" nomli ilmiy maqolalarning asosini tashkil qilgan. Ushbu natija Azim Suyun ijodi bilan bog'liq nazariy ma'lumotlarning boyitilishi, shoir she'rlaridagi obrazlar rang-barangligini ilmiy tahlil qilishga asos bo'lgan;

shoir Azim Suyunning she'rlari, doston va maqolalari yuzasidan qilingan tahlillardan OT-F1-77 raqamli "O'zbek adabiyoti durdonalari 100 jildligini nashrga tayyorlash" (2017–2021) fundamental loyihasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2021-yil 5-iyuldagi 3/1255-2961-sonli ma'lumotnomasi). Natijada muallifning bosib o'tgan umr yo'li, ijodi va she'rlari tahlillarining boyitilishiga xizmat qilgan.

Poetik obraz va uning ijodkor she'rlaridagi o'rni yuzasidan olib borilgan tadqiqotdan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi ijodiy kechalar va yosh ijodkorlar bilan uchrashuvlarida foydalanilgan. (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 23-iyundagi 01-03/827-sonli ma'lumotnomasi). Natijada shoir she'riyatini yoshlar o'rtasida yanada kengroq targ'ib etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan. Respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy va amaliy ahamiyati ta'kidlangan, ishonchligi, amaliyotga joriy etilganligi va aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

“Poetik obraz: tushuncha, genezis va tadrij” deb nomlangan birinchi bob ikkita fasldan tashkil topgan. **“Badiiy obrazning tarixiy ildizlari”** nomli birinchi faslda badiiy obraz tushunchasi, uning tarixiy ildizlari hamda tadrijiy takomili haqida ma'lumotlar beriladi.

Ma'lumki, inson tafakkur qilishni boshlaganidan buyon o'zi ko'rgan, eshitgan va tajribadan o'tgan barcha narsani xayolida qayta tiklashga intilib keladi. Buni Platon taqlid deb ataydi hamda “hikoya qilishning haqiqatdan ham, benazir odam biror narsadan xabar bermoqchi bo'lganida foydalanishi mumkin bo'lgan turi bor; ammo (benazir odamga) qarama-qarshi tabiiy qobiliyat va tarbiyaga ega odam o'z hikoyasida qo'llashi mumkin bo'lgan, bunga hech o'xshamagan boshqa turi ham bor” degan fikrni ta'kidlaydi⁴. Lekin bu taqlid voqelikni poetik qayta yaratish, qayta yaratish jarayonida tashqi borliqdan olgan taassurotlarini o'z ichki kechinmalari asosida qayta tashkillashni nazarda tutadi. Shunga ko'ra, iste'dod egalarining alohida qobiliyat yordamida narsalarning o'xshashini tasvirlashi badiiy san'at hisoblanadi. Ularda so'z, ritm, garmoniya o'zaro uyg'unlikda keladi. Shu ma'noda, yaratilayotgan badiiy asarda ijodkor so'z yordamida o'zi anglagan, tushungan va his etgan voqelikni shakl va mazmunga muvofiq, ma'lum bir mutanosiblikda ifodalay bilsagina, u ijod qilgan asar badiiy asar, obrazi poetik obraz hisoblanadi.

Badiiy obraz haqida nemis mutafakkiri Gegelning fikri so'nggi asrlar adabiyotshunosligida salmoqli sanaladi. Mutafakkir tabiat va san'atdagi go'zallik,

⁴ Афлотун. Давлат. Тарж. Урфон Отажон. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 113. (464 б.)

borliqni qayta idrok etish, go‘zallikning estetik chegarasi, badiiy ijod falsafasi va uning yuzaga chiqish asoslari, go‘zallik va badiiy ijodni ilmiy o‘rganish usullari (empirik asos va g‘oya tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi, san‘atga empirik yondashuvni ideya (g‘oya) nuqtayi nazari bilan birlashtirish, san‘atda go‘zallik tushunchasi, badiiy asar inson faoliyatining mahsuli, badiiy asar idrok uchun mo‘ljallanganlik va hissiy muhitdan o‘zlashtiriladigan asos, bunda san‘atning maqsadi, tabiatga taqlid, qalb to‘lqinlari, oliy substansial maqsad, san‘at tushunishning tarixiy deduksiyasi, botiniy olam, xarakter kabi o‘nlab masalalar ustida fikr yuritgan⁵. Natijada zamonaviy adabiyotshunoslikning dialektik obraz tizimi haqidagi nazariyaga asos solinadi.

Badiiy obraz haqidagi keyingi davrga oid kuzatishlarda rus olimlarning fikrlari ahamiyatli sanaladi. Xususan, V.G.Belinskiy shunday yozadi: “Har bir tashqi hodisadan avval tilak, orzu, niyat, xullas – fikr tug‘iladi; har bir tashqi hodisa ichki, yashirin kuchlarning faoliyati natijasidir: poeziya voqeaning mana shu ikkinchi, ichki tomoniga, bu kuchlarning tub negiziga kirib boradi, tashqi reallik, voqea va xatti-harakat ana shu kuchlardan o‘sib chiqadi”⁶. Bu yerda bir qarashda obraz haqida so‘z bormagandek tuyuladi. Ammo tashqi reallik, voqea va xatti-harakat lirik subyektning botinida akslanishi va undan o‘sib chiqishining o‘ziyoq poetik obrazga ishora qilishini ta’kidlash joiz.

Rus olimlari M.M.Girshman, A.V.Domashenko badiiy obraz haqida nisbatan aniqroq, ilmiyroq ta’rif berish bilan birga uning tarixiy ildizlari, taraqqiyoti haqida ham ma’lumotlar berishgan. Ularning qarashlarida badiiy obrazning estetika va adabiyotshunoslik kategoriyasi ekanligi, borliqqa spetsifik munosabatda bo‘lish natijasida yaratilishi va aniq hissiy yuklama bilan mavjud bo‘lishi ta’kidlanadi. Zero, har qanday obraz konkret shaxs va uning borliqqa jonli, hissiy munosabatini o‘zida namoyon etadi, aynan mazkur jihatlari bilan u borliqni anglashning boshqa shakllaridan ajralib turadi.

Asosiy muammo bo‘yicha fikrimizni davom ettirib, shuni ta’kidlaymizki, poetik obraz real borliqdan ba’zi jihatlari bilan ajralib turadi. “Poetik olam alohida – poetik qonunlar faoliyati natijasi o‘laroq paydo bo‘lmaydi, u poetik olamni anglash va yaratish jarayonida dolzarb bo‘ladigan eng umumiy – “dunyoviy” qonuniyatlarning faol ishtiroki natijasida shakllanadi. Ijodkor inson (muallif), yaratilgan odam (qahramon) va yaratilganni anglovchi inson (o‘quvchi) haqiqiy olam qonunlari bilan yashaydi, ammo bu poetik qonunlardir”⁷. Shu ma’noda, badiiy obrazning ham o‘ziga xos qonuniyatlari bor. Unda har qanday detal yoki borliqdagi aniq predmet zimmasiga qo‘yilgan badiiy yuklama hamda tashiydigan ma’no-mohiyatiga ko‘ra, o‘sib-o‘zgarib borishi, qahramon, xarakter va tip darajasigacha chiqishi mumkin. Bu esa poetik obraz murakkab va shuning bilan birga aniq kategoriya ekanligini ko‘rsatadi. Shu yerda obrazning ikki xil xususiyati namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni obrazning murakkab, shuning bilan birga aniqligini muallif va o‘quvchi munosabatini yo‘lga qo‘yadigan badiiy so‘z yordamida belgilanishini ta’kidlash lozim.

⁵ Гегель Г.Ф.В. Эстетика ёхуд санъат фалсафаси ёхуд бадий ижод фалсафаси. 1-жилд. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлар миллий жамияти, 2011. – Б.5 (360 б.).

⁶ Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашриёт, 1955. – Б.134 (510). www.ziyouz.com kutubxonasi

⁷ Федоров В.В. Поэтический мир / Теория литературы. Том 1. – Москва: ИМЛИ им. М.Горького, 2005. – С. 32 (336).

Faslda Azim Suyunning “Shom shafag‘i...”, “Xonaki g‘oz qanoti ulkan...” deb boshlanuvchi she‘rlari tahlili orqali poetik obraz yaralishiga oid qarashlar ilgari surildi. Chunonchi, shoir yaratgan g‘oz obrazi an‘anaviy obraz bo‘lib, lochinga nisbatan olganda: Masalaning ma‘nosi buldur, Lochin erkin, g‘oz quldir⁸, degan xulosada yangilanayotgan ijtimoiy-estetik mazmun mujassamligi talqin etiladi. Tahlillarimizga ko‘ra, shoir o‘zi yaratgan poetik obrazni an‘anaviylik doirasidan yangicha mohiyatga olib chiqa olgan.

“O‘zbek adabiyotida badiiy obraz” deb nomlanuvchi ikkinchi faslda aynan “obraz” so‘zi va uning termin sifatidagi talqini adabiyotimizda XX asr boshlaridan tilga olingani kuzatilsa-da, lekin uning turli talqinlari Platon, Aristotel va Forobiy, Ibn Sino kabi olimlar tomonidan ilmiy asoslagani, ya‘ni borliqdan ta‘sirlanish natijasida, uni badiiy qayta yaratish, voqelikni badiiy idrok etish va shu yo‘l bilan obraz yaratish juda qadim zamondan mavjud ekanligiga urg‘u qaratiladi. Bunga misol tariqasida xalq og‘zaki ijodining “To‘fon”⁹, “To‘maris”, “Shiroq”¹⁰ kabi afsonalari, “Kultegin”, “To‘nyuquq” kabi toshbitiglarini keltirish mumkin¹¹. Xususan, “To‘fon” afsonasida butun boshli vaziyat badiiy obraz sifatida ifodalangan. “To‘maris” va “Shiroq” afsonalarida esa obrazning personaj formasidan faol foydalanilgan. Kultegin va Tunyuquq toshbitiglarida turkiy davlatda muhim o‘ringa ega bo‘lgan vatanparvar shaxslar obrazi tasvirlangan. Keyinchalik bu jarayon yozma adabiyotga ko‘chgan. Xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida badiiy obraz haqida qimmatli izohlar keltirilgan. Xususan, “tadu – inson tabiati”, “tada-tata-manzara, bu o‘n qadam yerdan ko‘rinadigan yer bo‘lagi”¹². Bu so‘zlarning birinchisi xarakterga yaqinroq bo‘lsa, ikkinchisi esa peyzajni anglatadi. Voqelikni badiiy idrok qilishga oid tushunchalarni Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asarlarida ham uchratish mumkin.

Dissertatsiyada obraz so‘zining etimologiyasi haqida adabiyotshunoslar orasida bahsli fikrlarga ham to‘xtalingan. Jumladan, obraz so‘zining slavyan xalqlarida “...paydo bo‘lish asosiga ko‘ra bu so‘z “raz” chiziq asosiga borib taqaladi. “Raz”dan “obraziti” (chizmoq, yo‘nmoq, shakl yasamoq) va nihoyat, undan esa “obraz” ifodasi vujudga kelib asta-sekin san‘at darajasiga ko‘tarilgan”¹³, degan talqiniga e‘tiroz bildirgan Bahodir Sarimsoqov slavyan xalqlarida payg‘ambar Isoga qadar ijod namunalari obraz tushunchasining bo‘lmaganiga shubha bilan qaraydi. “Bizningcha, “Obraz” so‘zi kesmoq, yo‘nmoq ma‘nolarini ifodalovchi “rezat” so‘zidan emas, balki paydo qilmoq, tasvirlamoq ma‘nolarini ifodalovchi “razit”, “obrazit” so‘zidan olingani haqiqatga yaqindir. Bu talqinning to‘g‘riligi yana shunda ham ayon bo‘ladiki, arab tilidagi “bade” so‘zining ma‘nosi paydo qilmoq, yaratmoq, ijod qilmoq kabilardan iborat ekan, demak “obraz” so‘zining ham paydo qilmoq, yaratmoq ekanligi ayni

⁸ Суюн Азим. Танланган асарлар. 7 жилдда. 3-жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2002. – Б. 15 .

⁹ Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд / Тузувчилар: Н.Раҳмонов, Ҳ.Болтабоев. – Т.: Фан, 2003.– Б.15.

¹⁰ Юқоридаги манба. – Б. 15-22.

¹¹ 1) Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – Л.: Наука, 1951. 93 с. 2) Nasimxon Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Sano-standart, 2017. – Б. 38-63.

¹² Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. III том. – Т.: Ўзфанакадминистрацияси, 1963. – Б. 239 (463).

¹³ Расулов Т. Бадий асар қанотлари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. – Б. 3.

haqiqatdir”¹⁴. Nisbatan kechroq nashr etilgan “Adabiyot nazariyasi asoslari” (2018) muallifi Dilmurod Quronov obraz tushunchasi haqida fikr yuritganida asosiy e’tiborni so‘zning mohiyatiga qaratadi. So‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan istilohiy ma’nosi orasida mushtaraklik bo‘lsa-da, muayyan fan doirasida istiloh orasida aniq bitta ma’noni tushunish talab qilinishini ta’kidlab, adabiyotshunoslik uchun “Badiiy obraz” atamasi asosiy ekanligini aytadi. “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa-hodisa va b.) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda isbotlangan aksidir. Albatta, bu aksda borliqning ko‘plab tanish izlarini topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o‘zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliqdir”¹⁵. Istilohning etimologiyasi yuzasidan biroz bahsli vaziyat yuzaga kelgan bo‘lsa ham, aynan mazmun-mohiyat jihatidan badiiy obraz haqidagi qarashlar bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi, to‘ldiradi. Obrazlilik asosini ijodkorning voqelikni hissiy va aqliy idrok etishi tushuniladi. “Obrazning doyasi hissiyot bo‘lsa, murabbiysi aql va mantiqdir”¹⁶. Bundan ko‘rinadiki, obrazli fikrlash asosida badiiy tafakkur yotadi. Hayotni chuqur idrok etish orqali badiiy his etish va voqelikni ong prizmasidan o‘tkazib qayta tasvirlash obraz yaratuvchining dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq. Voqelik obrazlar vositasida aks ettirilar ekan, bu obrazlar voqelikning aynan o‘zidan, aynan nusxasidan iborat emas. San’at asaridagi har bir obraz ijodkor shaxsning hissiy va aqliy idrokidan o‘tgan, qayta yaralgan voqelik parchasidir. Bu yaratilayotgan obrazda badiiylik asosiy mezon hisoblanadi. “Badiiyliksiz san’atning o‘zi yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Badiiylik san’atning barcha turlari uchun yagona mezon hisoblanadi”¹⁷. Bu hodisa, ayniqsa, she’riy asarlarda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Chunki she’riyat o‘z tabiatiga ko‘ra, inson ruhiyatining oniy holatdagi kechinmalarini, tuyg‘ularini dramatik tarzda butun ehtirosli jozibasi bilan ifodalaydi. Shu bois she’riyatda qo‘llanadigan poetik obrazlar ana shu ruhiy po‘rtanalarni shoir badiiy niyati bilan bir butunlikda yaqqol aks ettirishga zamin tayyorlaydi. Ayni chog‘da, poetik obrazlar she’rdagi barcha unsurlarni bir-biriga mahkam payvandlab, lirik qahramon siymosini namoyon qilish va she’r strukturasi shakllantirishda ham muhim vazifani ado etadi.

Dissertatsiyaning “**Obraz va badiiylikning boshqa komponentlari**” deb nomlangan ikkinchi bobi “**Mavzu va obraz munosabati**”, “**Lirik “men” va lirik qahramon tahlili**” nomli fasllardan tashkil topgan. Birinchi faslda she’r mavzusi, uning adabiyotshunoslikda berilgan ta’riflaridan kelib chiqib, asarda uning “...badiiy mazmun komponenti, asarda qo‘yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma’naviy-axloqiy va h.k. muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot material” ekani ¹⁸ oydinlashsa-da, boshqa jihatdan ana shu “hayotiy material” asosida inson va uning obrazi yoki hayot tasviri turishi, shoirning uslubini yuzaga chiqaruvchi vositalar ham mavjudligi nazardan soqit qilingandek tasavvur uyg‘otadi. Chunki so‘z va atama ma’nosiga chuqurroq kirib borilsa, uni bir qancha variantda qo‘llanishi ayon bo‘ladi. “Mavzu – 1. Qo‘yilgan, tartibga solingan, qarorlashtirilgan; 2. Ega (mantiqda); 3.

¹⁴ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т.: ЎзРФА нашриёти, 2004. – Б. 8.

¹⁵ Қуронов.Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т., 2018. – Б. 89.

¹⁶ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т.: ЎзРФА нашриёти, 2004. – Б. 78.

¹⁷ Юқоридаги манба. – Б. 9.

¹⁸ Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 157.

Uydirma; 4. “Tuzilgan tema” kabi ma’nolarda ishlatilishi mumkinligi izohlangan¹⁹. Rus tilidagi manbalarda esa yunonchadan olingani va “asosida bo‘lmoq” ma’nosidan olingan bo‘lib²⁰, “1) bayon qilish, tasvirlash, tadqiq etish, muhokama qilish predmeti; 2) muammolarning qo‘yilishi, hayotiy materiallarni oldindan tanlash va badiiy asar rivoyasini xarakterlash...” kabi ma’nolarda qo‘llanishi yozilgan²¹. Diqqat qilinsa, asardagi aytilayotgan voqea, muhokama qilinayotgan hodisa predmeti mavzu sanaladi. Muammolarning qo‘yilishi, asar uchun tanlangan hayotiy materiallarning oldindan tanlangan qismi va ularni qay tarzda bayon qilish ham mavzu hisoblanmoqda. Demak, mavzu asardagi asosiy gap nima haqida borayotgani va uni qanday tanlanganidan tortib, qay tarzda ifodalashgacha bo‘lgan chegarani qamrab oladi. Shu yerda obraz ham mavzu bilan o‘zaro munosabatga kirishishi oydinlashadi. Chunki shoir tasvirlayotgan kechinma, o‘y-fikr, voqea real mavjudlikning tasviri ham hisoblanadi. Bu esa mavzu va obrazning zich munosabati borligini ko‘rsatadi. Ya’ni tema lirik asar (umuman olganda, har qanday badiiy asar)dagi voqealarni anglatsa, demak, u obrazni ham, aniqrog‘i, ma’lum davr, jamiyat, hodisa, vaziyat obrazini ham anglatishi mumkin. Masalan, shamol tabiat hodisasi, uni she’riy asarda aks ettirgan shoir shamolni obraz darajasiga olib chiqishi mumkin. Shu yerda u real voqealidagi shamoldan obraz darajasiga o‘sib chiqadi va insoniy xarakter yoki xususiyat kasb etadi. Masalan, shunga o‘xshashlikni Azim Suyun she’ri misolida isbotlashga harakat qilamiz:

Qoramtir, qontalash, qumlar tusida,
Quti o‘chgan, malla, qizilbulutlar,
Qandaydir vahmkor xil-xil bulutlar,
Shoshqin to‘planmoqda cho‘qqi ustida²².

Mazkur she’rning bosh mavzusi tabiatda uchraydigan hodisa, aniqrog‘i, lirik subyekt yaxshi ko‘radigan cho‘qqi ustida qora bulutlarning to‘planishi, so‘ngra, chaqmoq va shamol natijasida ularning tarqalib, cho‘qqi yana bor bo‘yicha ko‘rinishi haqida bo‘lib, shoir bulut, cho‘qqi, shamol, momoqaldiroqlarni obraz darajasiga olib chiqqan hamda she’r mavzusiga ijtimoiy-ma’naviy muammolarni joylay bilgan. Xususan, bu yerda zulm, shaxs erki va oydinlarni qatag‘on qilishga qarshi isyon g‘oyalari bo‘lib, biror jamiyat, jilla qursa, biror tashkilotda buzilayotgan ma’naviy-ijtimoiy inqiroz tasvirlangan. Qoramtir bulutlar timsolida hayotda uchraydigan ichi qora, hasadchi, xudbin, o‘zidan ustun kishilarga qarshi yomonlik sog‘inuvchi kishilarni anglash mumkin. Bunda cho‘qqi ozod va erkin shaxs sifatida, kishilarni ziyoga undovchi, xalq oldida ma’lum vazifalarni beg‘araz, chin ko‘ngildan bajaruvchi kishi sifatida olinadi. Bulutlar o‘zlari cho‘qqi bo‘lmagach, cho‘qqi va uning xalqqa kelayotgan yaxshiliklarini to‘sib qo‘ymoqchi bo‘lishadi. Ular cho‘qqini yo‘q qilishga chog‘langan. Buni anglagan lirik subyekt shamol va momoqaldiroqni yordamga chaqirgan. Demak, she’r tabiat hodisasi haqida bo‘lsa-da, shoir obrazlar yordamida real hayotda uchraydigan ma’naviy zulm, hasad, ma’naviy qashshoq kishilar tasvirini ham

¹⁹ Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамшиев, С.Иброҳимов. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 344. (784 б.)

²⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. 4. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.61 (608 б.).

²¹ Словарь иностранных слов. – Москва: Русский язык, 1989. – С. 501 (624).

²² Суюн Азим. Танланган асарлар. 7 китоб. Ж. 3. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 59 (408).

bergan. Bu esa shoir she'rlarida obraz mavzu va uning zamiridagi badiiy g'oyadan kelib chiqib, ramzga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Azim Suyun she'riyati mavzu ko'laming kengligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi. Vatanga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat, borliq – ona tabiat go'zalligini ulug'lash, insonni anglashga intilish, oddiy kishilarning olamni anglashi kabi mavzularning asosida insonni tushunish, hayotsevarlik, ishq-muhabbat motivlari yotadi. Shoirning tabiat mavzusida bitilgan she'rlarida borliq ham vatanning bir bo'lagi sifatida kuylanib, butun go'zalligi jonli va nafis manzaralarda tasvirlanadi. Shoir yaratgan poetik obrazlar zamon, davrning global muammolari bilan, tinchlik, ozodlik, vatanparvarlik motivlari bilan sug'orilgan.

Shoir ijodining mavzu ko'lami, yo'nalishlari, voqelikni ko'ra olishi, ifodadagi an'anaviylik, tasvirdagi o'ziga xoslik kabilar ijodiy olamni bezovchi vositalar sanaladi. Binobarin, shoir she'riyatining mavzu ko'lami ham ayricha e'tibor qaratishni taqozo etadi. Shuning uchun shoir she'rlarini jiddiy o'rganib, mavzu jihatidan guruhlariga bo'lishni lozim topdik. Bular: vatan va vatanparvarlik mavzularida yozilgan she'rlar, tabiat tasvirlari, ona zamin tabiati kuylangan mavzular, inson va insoniyatga xos bo'lgan falsafiy ruhda yozilgan she'rlar.

Ushbu faslda Azim Suyun she'riyatida ham ko'p kuylangan mavzular bo'lgan vatan va tabiatga bag'ishlagan ko'plab she'rlari tahlilga tortilib, ularda obraz yaratish mahorati o'rganiladi. "Vatan", "Nakurt qishlog'i", "Ufq osti", "Tutqun" kabi she'rlar tahlili shular jumlasidandir. Shoir she'rlarida vatan tushunchasi keng qamrovli mazmunga ega bo'lib, kindik qoni to'kilgan ona zaminni ham, insoniy burch va sadoqatni ham, eng qadrdon insonlarni ham, milliy qadriyatlarni ham o'zida mujassam etadi.

Shoirning "Nakurt qishlog'i" she'rida esa shu mazmun bor ko'lami bilan o'zining yorqin ifodasini topgan. Aslida Nakurt shoir tug'ilib o'sgan qishloqning nomi bo'lib, Nurota tog' tizmasi orasida joylashgan. Qishloq atrofi daralar bilan o'ralgan, har bir darada esa ko'plab buloqlardan suvlar shaldirab oqib, bu go'sha o'zgacha tus beradi. Aynan ana shu go'zallik, lirik subyekt botiniy olamidagi ushbu go'shaga bo'lgan muhabbat, tiriklikka hissiy munosabatni kuchaytirib, o'quvchiga badiiy-estetik ta'sir etadi. Shu tariqa, shoir bisotidagi bor go'zal tuyg'ularini kindik qoni to'kilgan ona zamanga bag'ishlaydi.

Shoirning "Tutqun" she'ri ham hayotiy, jonli epizodlar orqali vatanparvarlik g'oyasini yuksak pardalarda aks ettiradi. Tutqunlikka tushib qolgan yigitni g'animlar ma'nan mag'lub etmoqchi bo'lib, bir safar unga onangdan ayrilding, deb xabar berishadi va uning ko'zlarida qatra yosh ko'rmoqchi bo'ladilar. Lekin g'animlar lirik obrazning har qanday vaziyatda ham bosh egmasligini bilishmas edi. Chunki ularga yurt ozodligi har narsadan ustun degan aqida begona edi. Shuning uchun onasidan keyin yorini o'ldiga chiqarishadi. Ammo bu safar ham tutqunning mag'rur boshi g'animlarga egilmaydi. Chunki lirik qahramonning qaddini tik tutib turuvchi vatanga muhabbat tuyg'usi, yurt ozodligi g'oyasi bor edi. Shuning uchun vatan qo'ldan ketganini eshitgan qahramon joni ko'z yosh bo'lib chiqib ketadi:

Qasoskor xabarlar bilmas had,
Vatandan ayrilding, dedilar

Va uning ko‘zida so‘nggi dard –
Qatra yosh ko‘rmoqchi edilar,
Qatra yosh...
Bir qalqdi... Jon edi o‘sha yosh²³!

Bu o‘rinda shoir vatan tushunchasini g‘oyat ta‘sirli va hayotiy epizod orqali ifodalab bermoqda. Tutqun qismati fojiviy xarakterga ega, lekin uning shijoatli qalbi g‘animlarga egilishdan ko‘ra, mag‘rur turib jon berishni afzal ko‘radi. Bu o‘rinda shoirning poetik nigohi yigitning or-nomusi bo‘lgan eng xarakterli, eng mo‘tabar obrazlarni tanlab olishi bilan ham belgilanadi. Zero, ona ham, sevikli yor ham yigit uchun vatandek muqaddas. Bu uch tushuncha badiiyatda xuddi hayotning o‘zi kabi bir-biriga mustahkam rishtalar orqali bog‘lanib ketgan bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Shoirning mahorati shundaki, ona va sevikli yor obrazlarini undan keyin kelayotgan vatan timsoli bilan biriktirib yuboradi. Ona va yor haqidagi xabarlarda “mag‘rur qolgan mag‘rur bosh” ularning timsoli uyg‘unlashgan vatan haqidagi xabardan so‘ng jonga aylanadi. Zero, ona ham, suyakli yor ham faqat vatan degan tushuncha bilan birga ifodanadi. Mazkur she‘r sho‘ro saltanati hukmronlik qilgan yetmishinchi yillarda yozilgan bo‘lishiga qaramasdan, vatan mavzusida jasorat bilan yozilgan go‘zal va umrboqiy she‘rlardan biri hisoblanadi. Demak, vatan ozodligi g‘oyasini tutqun qahramon haqidagi voqea va tutqun yigit obrazi bilan yetuk darajada tasvirlangan. Ko‘rinadiki, lirik obraz mavzu, g‘oya, kechinma birligida yanada yuksak badiiy-estetik ko‘rinishga chiqadi.

Shoirning shu ruhda yozilgan “O‘rmon va o‘tinchi”, “Sadriddinga xat”, “Buxoroda” she‘rlarida ham xalqparvar uyg‘oq qalbning dardli nidosi ifodalangan. “Sadriddinga xat”, “Buxoroda” she‘rlarida ham laylak poetik timsol sifatida qo‘llanadi. Har ikki she‘rda ham laylaklarning ko‘hna shaharni tark etishidagi shoir nazarda tutgan mazmun mushtarak. Har ikkala she‘rida ham makon va zamon bir. Sobiq sho‘ro davri g‘oyalarining, zulm-u zo‘ravonligining ona vatanga, ko‘hna qadriyat-u o‘tgan ajdodlarga, xalqimizga yetkazgan ozorlari; yurtdan erkning, o‘zlik, osuda va farovon hayotning yiroqlashuvi. Biroq shoirning nurli umidlari batamom so‘nmagan. Shu xalqning avlodlari, beg‘ubor bolajonlari bor ekan, milliy o‘zlik tushunchasi butunlay yo‘q bo‘lib ketmaydi, u laylaklar timsolida qaytadi.

Azim Suyun ijodida tog‘, buloq, daryo, sharshara kabi tabiat unsurlari tasviri yetakchilik qiluvchi turkum she‘rlari mavjud, bunday she‘rlarini peyzaj lirikasining yetuk namunasi deyish mumkin. Umuman, Azim Suyun ijodiy-uslubiy o‘ziga xosligi peyzaj lirikasi asosida lirik qahramon kechinma-tuyg‘ularini, ruhiyatini ifodalashda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon tabiatdan olgan zavq, oniy kayfiyati, niyatini she‘r misralari zamiriga singdiradi.

“Lirik “men” va lirik qahramon tahlili” nomli ikkinchi faslda Azim Suyun she‘riyatining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi va obrazlar tizimi lirik qahramon “men”i bilan, uning o‘ziga xos bo‘lgan ruhiy olami hamda shoirning poetik nigohi, g‘oyaviy-

²³ Юкоридаги манба. – Б. 18.

estetik maqsadi bilan izchil bog‘langan holda namoyon bo‘lishi tahlillar asosida ochib beriladi.

Ma‘lumki, lirik she‘rdagi voqelik lirik qahramonning o‘y-kechinma, munosabati tarzida ifodalanadi. Shuning uchun lirik matnda ko‘pincha birinchi shaxs tilidan gapiriladi. Adabiyotshunoslikda uni “lirik qahramon”, “lirik obraz”, “lirik subyekt”, “lirik men” kabi turli so‘z birikmalari bilan ifodalash ko‘pincha ba‘zi chalkashliklarga olib keladi. Aslida “Lirikada ifodalangan kechinmalar tashuvchisini lirik qahramon deb atash qabul qilingan. Bu termin Y.N.Tinyanov tomonidan 1921-yilda “Blok 2” maqolasida kiritilgan, adabiyotshunoslik va tanqidda unga sinonim bo‘lgan “lirik men”, “lirik subyekt” so‘z birikmalari bilan birga joylashib qoldi”²⁴. Bunday chalkashlikning yuzaga kelishida birinchi sabablardan biri lirik subyektivlik bo‘lib, barcha holda ham she‘rdagi matnda kishining botiniy olamidagi voqelik tasvirlanadi. Uni namoyon etuvchi hamma vaqt ham muallif bilan bir kishi bo‘lmasligi mumkinligi ko‘p manbalarda yozilgan. Ammo qahramon obrazning nisbatan aniqroq atamasi bo‘lgani uchun qahramon ko‘proq ishlatiladi. Ammo voqelik subyektiv olamni ifodalashidan kelib chiqib lirik subyekt deb atash ham to‘g‘ri bo‘ladi. Lekin lirik “men” tushunchasida ko‘proq poetik olam, nisbatan subyektiv tasvir yetakchiligi ko‘p uchraydi. Lirik qahramon esa nisbatan konkretroq va u bir she‘r doirasida to‘la namoyon bo‘lmasligi mumkin.

Aslida lirik obraz qanday nomlanmasin, birinchi galda, unda lirik kechinma, lirik qahramonning ma‘naviy-biografik portreti, botiniy olami tasvirlanadi. Lirik shoir o‘z biografik ma‘lumotlari, olamni anglashdagi kechinmalarini lirik “men” zimmasiga o‘tkazadi. Bu shunchaki mexanik tarzda o‘tkazish emas, balki lirik “men”ning lirik muallifdan nisbatan ustunligini ta‘minlovchi jarayon ham sanaladi. Bunda muallifning tasavvuri kengligi, tushunchasi teranligi va ifodasi jonli ekanligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun shoir real hayotda uchramaydigan yoki uchragan bo‘lsa-da, ulkan badiiy ahamiyatga ega bo‘lmagan voqea, vaziyatni sof ruhiy vaziyatga aylantirib tasvirlashi mumkin.

Shunga ko‘ra, odatda poetik obrazning she‘riyatdagi bosh vazifalaridan biri sifatida uning lirik “men” bilan munosabatini, ruhiyatini, qalb kechinmalarini ko‘rsatishda asosiy unsurlardan biri ekanligini e‘tirof etish mumkin.

Zero, she‘riyatda yetakchi obraz – lirik “men” sanaladi. Lirik qahramonning munosabati shoir konsepsiyasini belgilovchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Biroq, ta‘kidlash lozim, she‘rda lirik “men” shoir shaxsiyatini bir butun holda butunlay ifoda etolmaydi. Boisi shoir lirik “men”da o‘z xarakterining muayyan qirralarini faollashtirish orqali lirik kechinmalarni umumlashtirish va universallashtirishga erishadi. Ayni shu umumlashganlik sababli lirik qahramon tuyg‘ulari o‘qirmanlarga-da yuqadi, ularga ta‘sir ko‘rsatadi²⁵. Demak, lirik “men” har doim ham shoirning o‘zi bo‘lavermaydi. Poetik obraz va timsollar mana shu lirik qahramonning o‘zligini namoyon qilishda asosiy unsurlar hisoblanadi. She‘riyatda lirik qahramon ruhiyatidagi kechinma tabiati va uning tahlili o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bu, eng avvalo, tashqi borliqni anglash jarayonida lirik subyektga kechayotgan oniy holatdagi kechinmalarga

²⁴ Хализев Е.В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2013. – С.278. www.gumer.ru/books/xalizev/

²⁵ Йўлдош Қ, Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: Kamalak, 2016. – Б. 268.

asoslanadi. She'riyat shu jihati bilan boshqa adabiy turlarga nisbatan ma'lum bir dramatismga, qisqa fursatli kechadigan ruhiy po'rtanalarga, ziddiyatli o'y-xayollarga izn beradi. Ayni paytda lirik subyekt kechinmalaridagi uyg'unlik, mushtaraklik tuyg'ularning o'ziga xosligini, subyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi. Binobarin, she'riy asarlarda shoir "men"i bilan lirik qahramonning o'zligini namoyon qilishi qayerda birlashib, qaysi o'rinlarda alohidalik kasb etishini anglash mushkul kechadi. Zero, shoir ijod jarayonida ko'proq o'z "men"ini, o'z orzu-istaklari va alam-hijronlarini qog'ozga to'kishi ayni haqiqat. Bu tizginsiz oniy kechinmalar she'rda umumlashma mohiyat kasb etsa, kitobxonga ham yuqsagina shoir "men"i lirik qahramon sifatida o'zligini namoyon qiladi.

Azim Suyun she'riyatga ko'tarinki ruh bilan kirib keldi. Uning dastlabki she'rlarida hayotga va yashashga juda katta tashnalik, ishonch, hayot go'zalliklaridan bahramand bo'lish, turmushning har qanday qiyinchiliklarni nazar-pisand qilmay yengib o'tishga kuchli ishtiyoq lirik qahramon ruhiyatini ichdan nurlantirib turadi. Shoirning yosh qalbi romantik tuyg'ularga boy, xatar-u xavf-to'siqlarni pisand qilmay yengib o'tishga shay turgan qahramon sifatida gavdalanadi.

"Ovchi o'limi" nomli balladasidagi Qodir boboning tilidan chizilgan burgut asosiy poetik obrazdir. Bunda burgut lirik qahramonning murosasiz, jangovar ruhiy olamini ochishda asosiy obraz sifatida namoyon bo'ladi. She'rda lirik qahramon hali yosh bola. She'r g'oyasi kasal qo'shnisi Qodir ovchiga qarashib turgan shu bola nigohi orqali ochiladi. She'rda Qodir ovchi fojiasining burgut bilan muqoyasalanishi va burgut bilan uyg'unlashishi yosh qahramon ruhiyatida o'ziga xos kechinmalar hosil qiladi.

"Bahodirning qilichi" she'rida ilgari surilgan yangicha konsepsiya va bola ruhiyati tasviri ishonarli hamda jonli – hayotiy lavhalarda ifodalangan. Ushbu she'r munosabati bilan ko'pgina adabiyotshunos olimlar fikr-mulohazalar bildirishgan²⁶. Haqiqatdan ham, ular ta'kidlaganidek, shoirning ushbu she'rida kuchli xarakter tasviri bor. She'rning lirik qahramoni shoirning o'zi. She'rdagi bosh qahramon esa yosh bolakay. Lirik qahramon munosabat bildirayotgan voqelik esa aynan shu bola ruhiyatidagi dramatik nuqtalarni tasvirlash bilan bog'liq. Odatda ertaklarda tasvirlanishicha, bahodirlarning qilichi sinmaydi, ular doim zafar qozonishadi. Qilich detali poetik obraz sifatida shu orqali lirik qahramonning faol munosabatini hosil qilgan. Shoirning ushbu she'rida ilgari surilayotgan konsepsiyaning yangiligi ham Bahodirning qilichi sinishi va bunga bolaning (yum-yum yig'lashi, kitob varaqlarini yirtib tashlab qilgan isyoni tarzidagi) faol munosabati bilan belgilanadi. Ushbu munosabatdagi o'kinch va iztirob obrazlilik va emotsionallik kasb etib o'quvchi qalbini ham tirnaydi. She'r xotimasida aks etgan lirik qahramonning komil ishonchi esa hamnafaslik, jonkuyarlik va yengilmas irodaning yorqin isbotidir. "Ishonaman,

²⁶ Олим С. Завқ ва масъуллик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993. 5 февраль; Йўлдошев Қ. Сўзга жойланган ўзлик. Сўз ёлқини. – Т.: Ф. Фулом, 2018. 4-15-б.

qaylardadir u // Bahodirga qilich izlaydi...”²⁷ Ko‘ramizki, she‘rlarda lirik qahramonning murosasiz, da‘vatkor, to‘siqlarni yengishga qodir kurashchan qalbi manaman deb o‘zini namoyon etib turibdi. Shoirning “Oppoq bulut haqida qo‘shiq”, “Istak”, “Meni o‘ldirolmas...” kabi she‘rlarida ham bu kabi da‘vatorlik va kurashchanlik kayfiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Avgust oqshomlarida” she‘rida ifodalanayotgan tuyg‘ular shoirning tiniq feruza osmon tagidagi o‘y-xayollari asosiga qurilgan.

Azim Suyun ijodida tog‘, buloq, daryo, sharshara kabi tabiat unsurlari tasviri yetakchilik qiluvchi turkum she‘rlari mavjudki, bunday she‘rlarini peyzaj lirikasining yetuk namunasi deyish mumkin. Umuman, Azim Suyun ijodiy-uslubiy o‘ziga xosligi peyzaj lirikasi asosida lirik qahramon kechinma-tuyg‘ularini, ruhiyatini ifodalashda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoirning “Sangardak sharsharasi”, “Tentakdaryo. Xo‘jaipok bulog‘i”, “Do‘rmon bog‘i”, “Aydarko‘l” kabi bir turkum she‘rlarida go‘zal tabiat tasviri vositasida lirik qahramon kechinmalari, kayfiyati ifoda etiladi.

Shoir yaratgan poetik obrazlar kichik bir badiiy detaldan tortib yurtimiz qiyofasini namoyon qiluvchi va jahon hamjamiyatidagi o‘rnini, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarining muhim jihatlarini namoyon qiluvchi o‘ziga xosliklarigacha qamrab olinganligini ko‘ramiz.

“Shoir she‘rlarida obraz va motiv” deb nomlanuvchi uchinchi bob ikki fasldan tashkil topgan bo‘lib, **“Azim Suyun she‘rlarida falsafiy-ma‘rifiy talqin”** nomli dastlabki faslida shoir she‘rlaridagi shakliy-uslubiy izlanishlar va ularning talqini xususida so‘z boradi.

Ma‘lumki, XX asrning 70-yillaridan boshlab she‘riyatimizda shakliy-uslubiy izlanishlarning yangicha to‘lqini boshlandi. “Natijada, Anvar Obidjon “ignabarg”, “uchchanoq”, Farida Afro‘z “firqa”, U.To‘ychiev “nasriy she‘r”... deb ataydigan she‘riy shakllar kirib keldi”²⁸. Azim Suyunning shakliy-uslubiy izlanishlarining mahsuli bo‘lgan “qayirma”ni ham shu qatorga kiritish kerak. Kichik janrlarni tadqiq etgan Q.Yo‘lchiev “Badiiy asarlarni janrlarga ajratish, janrlarning umumiy va xususiy belgilari, identifikatsiyalash muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan”²⁹ deydi hamda “adabiyotimizda ikkilik, uchlik, to‘rtlik, beshlik kabi she‘riy shakllar mavjud. Shuning uchun ularni birlik va uchlik deb atash maqsadga muvofiq” degan tavsiyani beradi³⁰. Shu ma‘noda, Azim Suyunning to‘rtlik oldidan alohida misra kiritib, ularni qayirma deb atagani ortida hamda shoirning shakliy-uslubiy izlanishlari borligi, ammo mazkur shakl janr talabiga javob berish-bermasligini vaqt ixtiyoriga havola etish zarur. Negaki, mazkur turkumli aytim ayrim adabiyotshunoslar tomonidan alohida “qayirma” janri deb atalgan bo‘lsa-da, bu qarashlarga matbuot orqali biron bir e‘tirozli munosabat bildirilmadi. Ehtimol, muallif qayirma deb atagan she‘riy shakllarni badiiy-falsafiyligi, mazmuniy kompozitsiyasi bilan qadimgi turkiy she‘riyatdagi to‘rtlik yoki Sharq she‘riyatidagi ruboiyning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkindir. O‘z lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra qayirma pishiq, obdan yetilgan

²⁷ Суюн Азим. Танланган асарлар.(2-китоб) –Т.: Ф.Фулум, 2015. – Б. 111.

²⁸ Йўлчиев Қ. Типологик ўхшашликлар: бирлик ва учлик. – Т.: Турон замин зию, 2016. – Б.6-7;118 (220)

²⁹ Юқоридаги манба. – Б.110 (220)

³⁰ Юқоридаги манба. – Б.7,63; 110.

ma'nolarini anglatadi. Bu haqda Azim Suyun qayirmalarini tahlil qilgan ko'plab ilmiy ahli o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Jumladan, Abdulla Oripov, Qozoqboy Yo'ldoshev, To'lepbergen Qayipbergenov, Halima Xudoyberdieva, Saydi Umirov, Salim Ashur kabilarning Azim Suyun ijodi, xususan, qayirmalari yuzasidan olib borgan kuzatishlari ham katta ahamiyat kasb etadi³¹. Xususan, Qozoqboy Yo'ldoshev qayirma so'zining etimologiyasi haqida to'xtalib, quyidagi fikrlarni bildirgan: "Qayirma" so'zi shevada obdan yetilgan, tobiga kelgan narsa, ish-harakat, amal ma'nolarini anglatadi. Jumladan, qayirma patirni o'zbek qishloqlarida tajribali kayvonilargina yopa oladi... Qayirmaning o'zagida qayishlilik, ya'ni pishiqlik, puxtalik ma'nosi ham bor. "Qayirma" janridagi she'rlarning Azim Suyun ijodida endi paydo bo'lgani ham shu bilan izohlanadi. Muayyan hayotiy bosqichdan o'tib, yetarli turmush tajribasi va kerakli poetik mahoratga ega bo'lgandan keyingina she'rda ham yoniq yurak haroratini, ham falsafiy fikrchanlikni uyg'unlashtirish imkoni paydo bo'ladi"³². Lekin bu yerda olim muomalaga kiritilayotgan atamaga ilmiy nuqtayi nazardan yondashib, she'rning janriy xususiyatlarini ochib bermagan. Iste'dodli shoira Xalima Xudoyberdieva esa "Ey do'st, juft bo'lsin! yoki qayirmalarni qayirgan shoir" maqolasida Qozoqboy Yo'ldoshevning fikrini qo'llagan holda qo'shimcha qilib qayirmaning yana bir ma'nosini: "o'ziga, so'ziga qat'iy ishonch, qaytmaslik, jo'mardlikdir",³³ deydi. Umuman, qayirma o'z mohiyatiga ko'ra hajman kichik, mazmunan teran fikrni ifoda etib, xalqona ifoda va ibratni o'zida mujassam etadi. "Ey do'st!" murojaati bilan boshlanuvchi mazkur qayirmalarning kompozitsion qurilishi bir xil bo'lsa-da, undalmada ifodalangan mazmun turfa xil. Masalan, "Ey do'st!" murojaati qayirmalarda faqatgina murojaat ma'nosini emas, balki xitob, anglash, o'git, iqrar, hayrat, ishq, dard, ishonch kabi ma'nolarni ham anglatib keladi³⁴.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronov o'zbek she'riyatida shu paytgacha qo'llangan lirik janrlarni tasniflar ekan, qayirma janrini individual ijodiy eksperiment tarzida maydonga kelgan janrlar guruhiga kiritadi. Bu guruhda qayirma (Azim Suyun), ignabarg, uchchanoq (Anvar Obidjon), fiqra (Farida Afro'z) janrlari o'rin olgan³⁵. Olim ta'kidlaganidek, bu janr hali tajriba sifatida maydonga kelgan, uning ommalashishi va keyingi taqdiri haqida biror fikr aytishdan yiroqmiz. Lekin qayirma alohida janr bo'lishi uchun uning qator shakliy va mazmuniy talablari, ritmik-semantik, ritmik-intonatsion jihatlari bo'lishi hamda ma'lum muddat davomida she'riyatimizda boshqalar tomonidan ham qo'llanib, amaliyotga joriylanishi va vaqt sinovidan o'tib, boshqa janrlar qatoridan muqim joy olishi shart bo'ladi. Shuning uchun qayirmalarni janrdan ko'ra ko'proq shakliy-uslubiy izlanish mahsuli deyish maqsadga muvofiq bo'ladi.

³¹ Bu haqda qarang: Oripov A. Qayirma – mустақил жанр // Суюн Азим. Танланган асарлар. 7 китоб. К. 1. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. – Б. 408; Йўлдошев Қ. Янгилашиш эҳтиёжи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005, 5 август; Худойбердиева Х. Эй дўст, жуфт бўлсин! // Суюн Азим. Танланган асарлар. 7 китоб. К. 1. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. – Б. 409; Умиров С. Дўстнома / Суюн Азим. Танланган асарлар. 7 китоб. К. 1. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2009. – Б. 415. Ашур С. Сўз харорати / Ёшлик, 2005, 6-сон.

³² Йўлдошев.Қ. Янгилашиш эҳтиёжи. // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати", 2005 йил, 5 август.

³³ Суюн Азим. Танланган асарлар. 7 китоб. К. 1. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2009. – Б. 420.

³⁴ Бу ҳақда қаранг: Оripов А. Қайирма – мустақил жанр. Манба: Суюн Азим. Танланган асарлар. 7 китоб. К. 1. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. – Б. 408.

³⁵ Бу ҳақда қаранг: Қуронов Д. Адабиётшунослик назарияси асослари. – Т.: Akademnashr, 2018. – Б. 393.

Tadqiqotimizda ilmiy-nazariy muammoga aniqlik kiritish maqsad etilmagani uchun yuqoridagi munosabat bilan cheklanib, qayirma she'rlarning mazmuniga e'tibor qaratib, tahlillar berilgan. Azim Suyun "Ey do'st" kitobiga 1001 ta qayirmani kiritgan³⁶. Har biri "Ey do'st!" da'vati bilan boshlanuvchi qayirmalar ifodalangan tuyg'u va hikmat uyg'unligi nihoyatda sodda, xalqchil ifodasi bilan, falsafiy teran mushohadalari va samimiy kechinmalari bilan yuqumli, zalvarli sanaladi. Chunki umumiy tashqi kompozitsiyaga qaraganda "qayirma"lar badiiy muloqotga asoslangan va ularda lirik qahramonning hayotiy kuzatishlari qisqa, aniq, lo'nda ifodalangan. Oqibatda ular mumtoz Sharq she'riyatidagi Rudakiy, ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Bedil kabi shoirlar ruboiylarini yodga soladi. Darhaqiqat, Azim Suyunning "Ey do'st!" da'vati bilan boshlanuvchi qayirmalari ifodalangan tuyg'u va hikmat uyg'unligi nihoyatda sodda, xalqchil ifodasi bilan, falsafiy teran mushohadalari va samimiy kechinmalari bilan yuqumli, zalvorlidir.

"Xalqona hikmat va motivlar tasviri" nomli ikkinchi faslda Azim Suyun she'riyatining xalq ruhiga yaqinligi, xalqchilligining asosiy sabablaridan biri xalq og'zaki ijodi namunalaridan, ayniqsa, uning ohanglaridan ijodiy foydalanishida, ma'naviy ozuqa olishi bilan izohlanadi.

Lirik she'rda badiiy mazmuni harakatga keltiruvchi asosiy kuch motiv bo'lib, u g'oyadan, mavzudan va lirik kechinmadan farq qiladi. "Motiv bu – asarning kuchaytirilgan ahamiyatga ega (semantik jihatdan to'yingan) bo'lgan tarkibiy qismidir. Motiv asar mavzu va konsepsiyasi (g'oya) ga faol bog'langan, biroq ulardan ortiq emas"³⁷. Lirik she'rdagi motiv (ko'pincha leymotiv) shoir ifodalamoqchi bo'lgan mazmun va uning tarkibiy qismlari g'oya, mavzu, muammo, kechinmani harakatga keltiruvchi kuch sifatida ishlatiladi. Masalan, "Alpomish" dostonida Boybo'ri va Boysarini harakatga undagan motiv bu farzandsizlik motivi sanaladi. Shu ma'noda musiqashunoslikdan adabiyotga ko'chgan mazkur termin ko'proq lirik subyekt botiniy olamini qisqa aniq ifodalashga xizmat qiladi. Ba'zan uni bir so'z yoki so'z birikma bilan ifodalash qiyin kechadi. Shuning uchun ba'zi olimlar uni g'oya yoki mavzu bilan chalkashtirib ham yuborishadi. Lekin ulardan farq qiladi. Aslida "Motiv [moh-teef], vaziyat, hodisa, g'oya, tasvir yoki xarakter turi. Ko'p turli badiiy asarlarda, xalq ertaklarida yoki afsonalarida uchraydi; yoki har qanday umumiyroq mavzuda yaratilgan asar elementi"dir³⁸. Bu element ko'proq xalq og'zaki ijodi ta'sirida shakllangan mavzularni ifodalashda kechinma, lirik o'y-fikrni yo'naltiruvchi vazifasida keladi. Shu ma'noda shoir yaratgan she'rlarning aksariyatida lirik subyektning kechinma, o'y-fikrlari tarkibida yetakchi bo'lib, ko'p takrorlanib kelgan, lirik subyektning bosh qotirishga undagan narsa motiv hisoblanadi. Aynan motiv lirik o'y-fikrlarni syujet darajasiga olib chiqishga ham xizmat qiladi. Xususan, Azim Suyun she'riyatining xalq ruhiga yaqinligi, xalqchilligining asosiy sabablaridan biri xalq og'zaki ijodi namunalaridan, ayniqsa, uning ohanglaridan ijodiy foydalanishida, ma'naviy ozuqa olishi unda xalqona motivlar ko'pligi bilan izohlanadi. Shoir

³⁶ Суюн Азим. Танланган асарлар. Етти китоб. К.1. – Т.: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа-ижодий уйи, 2009. – 440 б.

³⁷ Хализев Е.В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2013. – С.236. www.gumer.ru/books/xalizev.

³⁸ The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. Chris Baldick. Published in the United States by Oxford University Press Inc., New York. 2001. – P. 162.

she'rlarida, shuningdek, qayirmalarida ham xalq ohangida bitilgan she'rlar ko'plab uchraydi. Deyarli aksariyat she'rlarida xalqona ruh yetakchilik qilishini ta'kidlash zarur. Shoiridagi baxshiyona qobiliyat uning yaratgan dostonu rivoyatlarida ham xalq ijodiga ergashish, undan ijodiy oziqlanishda ekani yaqqol sezilib turadi. Biroq uning xalq og'zaki ijodiga yaqinligi faqat ohangdorligi va o'ynoqi misralari bilangina emas, eng avvalo, poetik obraz va mazmundagi xalqona ruh bilan belgilanadi. Shoir she'rlarining aksariyatida inson va uning qalbi dramalari asrlar sinovidan o'tgan haqiqatu hikmatlar bilan boyitilgani ham shu bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning ushbu faslida Azim Suyunning "Bobom Suyunning otam Olimga vasiyati", "Otam Olim Suyun o'g'li xotirasiga", "Quyosh botar payti" (ota nasihati, sergaklikka, uyg'oqlikka undov), "Otam qabrtoshidagi yozuv" kabi she'rlarida ota obrazi va unga xos xislatlar falsafiy mushohadalar fonida ifoda etilsa, "Ona qalbi", "Tandir boshida", "Tumor" (farzandiga bo'lgan yuksak mehri xat poetik detali asosida tasvirlanib, onaning tumoriga aylangan), "Menga ertak so'ylab ber, buvi", "Ona o'g'lin...", "Onalar"(sog'inch), "Ona va bola haqida ikki hikoyat" kabi she'rlari tahlil qilingan. Azim Suyunning "Asrlar hikoyati" she'rida folklor motivlari, afsonalarga asoslanilgan holda bugungi kun uchun ham dolzarb muammo bo'lgan nafsga muhtalolik balosi nafaqat kishilarni, balki butun boshli davlatlarni ham urush iskanjasiga chorlab, halokatga yuz tutishiga sabab bo'lishi tasvirlangan. She'rning muqaddimasi baxshiyona ifoda usuli asosida:

Yo'llar yurdim sargashta,
Yo'llar – mening ko'zlarim.
Bu yo'llarda har go'sha –
Afsonalar so'zladi...³⁹

deya boshlanadi.

Shoirning yo'l poetik detali vositasida kechirgan kunlarning voqelikda namoyon bo'lishi ko'z badiiy timsoli orqali his qilinayotganini ifodalaydi. She'rda Iskandarning ko'p ming sonli yengilmas qo'shini bir tog' qishlog'ini "tobun" qilolmay mag'lub bo'ladi. Bu mag'lubiyatning sababi – nafs balosi. She'rda oltin poetik obrazi mohiyatiga mag'lubiyat, ochko'zlik, nafs, yovlashish timsollari singdirilgan. Bu esa shoirning yangicha poetik konsepsiyasini namoyon etadi. Zero, odatda bir tomondan oltin – boylik, davlat, shuhrat timsollarni ifodalab kelingan bo'lsa, ayni she'rda uning mazmuni mutlaqo o'zga ma'noni, ya'ni nafsga muhtalolik ma'naviy inqirozga olib kelishini izohlaydi.

Zotan, bashar oltinning
Bu kun sehriga shaydo.
Nahs bosgan qo'li uning
Har yerda hozir, paydo.
Ikki qit'a – ikki yurt
Yovlashdi oltin deya.
Qirar ellar bir-birin

³⁹ Суюн Азим. Танланган асарлар. 7 китоб. К. 1. – Т.: Фафур.Фулум номидаги нашриёт-матбаа-ижодий уйи, 2009. – Б. 255.

Oltin hayotdir go‘yo⁴⁰.

Azim Suyunning afsonalar mazmuni singdirilgan ushbu “Asrlar hikoyati” she’ri ma’naviy-axloqiy ahamiyatga molik hamma davrlar uchun dolzarb va global muammolar yoritilgani bilan ham muhim.

Azim Suyunning “Tanho daraxt” she’rida “inson o‘z taqdirini o‘zi yaratadi” degan konsepsiya yo‘l poetik detali vositasida ifodalanadi. Munqli va o‘ychan lirik qahramonning yo‘l boshida yo‘lovchiga bergan quyidagi javobi bizni shunday xulosa chiqarishimizga asos yaratdi. “Bu yo‘l qanday yo‘l o‘zi, aytgil?” – // Men dedim: “To‘g‘riga to‘g‘ri yo‘l, egriga egri yo‘ldir bu”⁴¹. Ko‘rinib turibdiki, yo‘l poetik detali hayot, umr yo‘li ma’nosini anglatib, hayotiy haqiqatni ifodalaydi.

Yuqoridagi kuzatishlarimizdan ma’lumki, Azim Suyun ijodida folklor an’analari yaqqol namoyon bo‘lgan va shoir uslubining ham asosini yaratgan. She’rlariga xalq og‘zaki ijodi ruhiyatini singdirolgani esa shoirning mahorati masalasi bo‘lib qoladi.

UMUMIY XULOSALAR

Dissertatsiyadagi kuzatishlardan quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. So‘z san’ati yaralibdiki, voqelikni badiiy idrok etish eng qadimgi xalq og‘zaki ijodi hamda yozma adabiyotimizning mumtoz namunalari dayoq voqelikni obraz va timsollar yordamida tasvirlash, obrazli ifodalash an’anasi tadrijiy takomiliga ko‘ra zamonaviy o‘zbek she’riyatida ham faol rivojlanib borgan. Ularni o‘zbek adabiyotida shakllangan va shakllanayotgan badiiy-estetik qarashlar fonida tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Binobarin, adabiy jarayon o‘z davrida xalq, millat madaniyati, ma’naviy olamini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi.

2. O‘tgan asrning 70 - 90-yillar o‘zbek she’riyatida an’anaviy yo‘sindagi ifoda shakllari bilan bir qatorda zamonaviy usullarga, xususan, poetik obrazning majoziy va ramziy namunalari yaratishga ham e’tibor kuchaydi. Poetik obrazlar tashigan mazmun davr ruhi ta’sirida doimiy bo‘lib qolgan qoliplarni o‘zgartirishga erishdi. Bu davrga kelib she’riyat chin ma’noda ko‘ngil ishi ekanligi, siyosiy va mafkuraviy tazyiqlardan xoli bo‘lishi lozimligini anglash birlamchi o‘ringa ko‘tarila boshladi.

3. Zamonaviy o‘zbek she’riyati vakillari, jumladan, Azim Suyun ijodida ham metaforik tarzda fikr yuritish, o‘z kechinmalarini chinor, tog‘, daraxt, osmon, daryo, shamol, bo‘ron kabi ramziy obrazlar orqali ifodalashga e’tibor kuchaydi. Ayni paytda u yaratgan she’rlar ko‘proq an’anaviy she’riyat buloqlaridan suv ichdi. Shoir she’rlari vatanni, so‘lim tabiat go‘zalliklarini tarannum etuvchi poetik obraz va timsollar bilan boyitildi. Shoir ijodida lirik qahramon davrning o‘tkir ijtimoiy-ma’naviy his-tuyg‘ularini o‘zida mujassamlashtirishi bilan alohida ajralib turadi. Shoir ijodida uchraydagan poetik obrazlar ham davr she’riyati haqida tasavvurlarni boyitishga xizmat qildi.

5. Ma’lumki, davr o‘zgarishlari bevosita shu davrda yashayotgan ijodkor shaxsiyatida, dunyoqarashida ham o‘z aks-sadosini beradi. Bu hol u yaratayotgan badiiy namunalarda ham o‘zining u yoki bu tarzda ifodasini topadi. Shu ma’noda

⁴⁰ Юкоридаги манба. – Б. 133.

⁴¹ Юкоридаги манба. – Б. 237.

davrga xos o'zgarishlar she'riyatga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Azim Suyun she'riyatidagi poetik yangilanishga davr o'zgarishlari ta'sir ko'rsatdi. Natijada shoirning o'tish davri ijodida badiiy tafakkurda ro'y berayotgan evrilishlar o'z ifodasini topdi, yuksak vatanparvarlik va o'zlikni anglashga bo'lgan kuchli intilish shoir she'riyatining pafosiga aylandi.

6. Har bir ijodkorning o'ziga xos uslubi bor. Azim Suyun uslubi u yaratgan poetik obrazlarda yuksak vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglashga qaratilgani bilan ajralib turadi. Vatan tushunchasi ona tabiat bilan, til, milliy qadriyatlar bilan uyg'un tarzda tasvirlana boshladi. Shoir ijod qilgan turli janrlarni mazmuniy mushtaraklik birlashtirib turadi.

7. Azim Suyun she'riyatida peyzaj lirikasi ham ustunlik qiladi. Peyzaj orqali lirik qahramon ruhiyatini ko'rsatish shoir she'rlariga xos xususiyatlardan biri. Azim Suyun she'rlarida inson va tabiat munosabatlari alohida yo'nalishga ega bo'ldi. Tabiatga xos bo'lgan hodisalar – tog', buloq, chashma, archa, burgut, alqar, kaklik kabi jonzot-u parrandalar ham shoir she'rlarida yetakchi poetik obraz va timsollar sifatida tasvirlandi. Buni esa shoir biografiyasining bevosita akslanishi deyish mumkin.

8. Shoir she'rlarida yaratilgan poetik obrazlarda ramziy-majoziy talqinlar vositasida milliy o'zlikni anglash, erk, ozodlik motivlari ham ilgari surila boshladi. Bu g'oyalar turli xil shakl va ko'rinishlarda, xususan, burgut, ovchi, bo'ri, ona tilga e'tibor, or-nomus kabi bir qator poetik obrazlar orqali ifodalandi. Bunda shoir xalq og'zaki ijodining go'zal namunalaridan ham ijodiy oziqlandi. Natijada, Azim Suyun she'riyati o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sirlarni singdirishi, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalanishida vosita sifatida xizmat qiladigan daraja yetdi.

9. Ijodkorning poetik mahorati haqida so'z ketganda, uning badiiy tasvir vositalarini qo'llash uslubini chetlab o'tib bo'lmaydi. Shoir she'rlarida o'zbek she'riyati imkoniyatlaridan kelib chiqib turli xil badiiy tasvir vositalaridan – tashbeh, talmeh, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a, perifraza, metafora va tilning boshqa ifoda san'atlaridan mohirlik bilan foydalanib badiiy ta'sirchanlikka erishganligini kuzatamiz.

10. Azim Suyun qayirmalarida sharqona hikmat va falsafiy teranlik ustuvorligi muallif she'riyatidagi yangi bir yo'nalish sifatida baholandi. Son jihatidan qayirmalarning ko'pligi (1001 ta) ba'zi o'rinlarda mazmunning sustlashishiga ham olib kelgan. Boshqa o'rinlarda aks etgan kuchli tasvir va sharqona falsafiy ruh qayirmalarning hammasining ham badiiy qiymati bir xil emasligini ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА,
ЛИТЕРАТУРЫ И ФОЛЬКЛОРА**

ИНСТИТУТ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА, ЛИТЕРАТУРЫ И ФОЛЬКЛОРА

КЕЛДИЯРОВА НАИМА НАБИЖАНОВНА

**ПОЭТИЧЕСКИЙ ОБРАЗ И ЕГО ХУДОЖЕСТВЕННАЯ
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ**

(на примере творчества Азима Суюна)

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) зарегистрирована за В2019.1.PhD/Fil710 Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Институте узбекского языка, литературы и фольклора.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tai.uz) и Информационно-образовательном портале (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: **Кахрамонов Курдош Ялгашевич**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Хасанов Нодирхон Дадаханович**
доктор филологических наук.

Улугов Абдулла Узбекович
Кандидат филологических наук, профессор

Ведущая организация: Национальный Университет Узбекистана

Защита диссертации состоится 25 января 2023 года в 12 часов на заседании Научного совета DSc.27.06.2017.Fil.46.01 по присуждению ученой степени доктора философии при Институте узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан. (Адрес: 100060, г. Ташкент, ул.Шахрисабзская, д.5 Тел: (99871) 233-36-50; факс: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Основной библиотеке Академии наук Республики Узбекистан (зарегистрирована номером _____). Адрес: 100100, город Ташкент, ул. Зиёлилар, 13. Тел.: (99871) 262-74-58.

Автореферат диссертации разослан 9 января 2023 года
(протокол реестра № 2 от 9 января 2023г)

Н.Каримов,
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.ф.н., академик

Р.Баракаев,
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
к.ф.н.проф.

Ж. Эшонкулов
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней
д.ф.н., проф.



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Поэтический образ и его специфические черты, художественное восприятие поэтом бытия, способы и средства художественного выражения воспринимаемой действительности изучаются в мировой литературе с древнейших времен. Однако поэтический образ как одна из постоянных проблем литературоведения имеет научное значение во все времена.

Создание поэтического образа, изучение художественного мастерства поэта с XX века до наших дней рассматривается как одна из основных проблем научных исследований, созданных в мировом литературоведении. В качестве основных факторов, определяющих концепцию поэта, рассматриваются психика лирического героя, различные поэтические элементы, эмблемы и символы, используемые в проявлении поэтического «я», художественно-эстетическая функция образных интерпретаций. Поэтический образ и другие художественные элементы, созданные в поэзии, считаются основными признаками, определяющими творческую позицию поэта, и освещаются в гармонии с взглядами творца на литературу, художественное произведение и его природу, творческий процесс.

Художественный образ и его интерпретации всегда серьезно изучались в узбекской литературе. Но сегодня возникает необходимость изучения поэтического образа, в частности его постепенного совершенствования на примере творчества Азима Суюна. Художественные образы, созданные художниками нового поколения, отличаются тем, что они ориентированы на отражение душевных переживаний лирического героя, как социальных, так и духовных, а также на фоне взаимоотношений человека и природы. В поэзии, наряду с общечеловеческими ценностями, подъем национального самосознания, восточных нравственных чувств, потребность понять самобытность человечества стали требовать обновления поэтического выражения. Таким образом, мы можем видеть примеры традиционных, современных и новых поэтических исследований в молодежной поэзии этого периода. Поэтому, исследуя молодежную поэзию этого периода, особенно творчество талантливого поэта Азима Суюна, с точки зрения художественного мастерства, того, как личность и мировоззрение поэта проявляются в его стихах, определяя концепцию поэта на основе традиционных и современных способов выразительности в создании нового поэтического образа и трактовке символических образов, вызывает необходимость проведения наблюдений над проблемами, связанными с интерпретацией духовности в художественном творчестве. Ведь «...внимание к литературе и искусству, культуре - прежде всего, внимание к нашему народу, внимание к нашему будущему, как сказал наш великий поэт Чолпон, мы не имеем права забывать, что если литература

и культура живы, то нация может жить»⁴². Соответственно подход к внутреннему миру лирического «Я», выраженный в творчестве поэтов на основе новых подходов, наблюдаемых в литературоведении периода независимости, с точки зрения национальных и общечеловеческих ценностей, определяет актуальность работы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП - 60 от 28 января 2022 года «О СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА 2022 — 2026 ГОДЫ» УП – 4797 от 13 мая 2016 года «Об организации Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», № ПП - 2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», № ПКМ - 304 от 22 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы послевузовского образования», а также, других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование и пути выполнения системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Исследования поэтического образа и его особенностей, классификация, вопросы художественно-эстетической функции проводились такими учеными, как Платон, Аристотель, Фароби, Абу Али Ибн Сина, Юлий Цезарь Скалигер, Вильгельм Георг фон Гегель, В. Г. Белинский, А. Потебня, А. Садий, Фитрат, Рене Веллек, Остин Уоррен, Иззат Султан, Л.Тимофеев, Г.Поспелов, Б.Саримсаков, В.Е.Халицев, Н.Д.Тамарченко, Терри Иглтон⁴³.

⁴² Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на встрече с представителями творческой интеллигенции Узбекистана на тему “Развитие литературы и искусства, культуры - прочная основа для поднятия духовного мира нашего народа”/ Народное слово. – Ташкент, 2017, 4 августа.

